**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| **Ro‘yxatga olindi:** | **“TASDIQLAYMAN”** |
| № 296 | O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| | ________ Bozorov O.N. |
| 2022 yil “29” 08 | “___” ________ 2022 yil |

# *MOLIYAVIY HISOBOT AUDITI*

*fanining*

***SILLABUSI***

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 | - | Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 70410102 | - | Audit (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) |

**Qarshi – 2022 yil**



Scanned with CamScanner

Fanning sillabusi tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzildi.

**Tuzuvchi:** **Jumayeva G.** "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning sillabusi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2022 yil 24 avgustdagi 01 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti uslubiy komissiyasida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** ______ **A.T.Alikulov**

Fanning ishchi o'quv dasturi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №01 24.08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №01, 29.08. 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i ______ **Turdiyev Sh.**

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi ______ **Qurbonov A.**



**Fan sillabusi**
**Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti**

**Fan to'g'risida ma'lumot**
**Fan shifri: 336 AFST 1 4 1 02**
**Fan nomi: Moliyaviy hisobot auditi**
**Semestr/ yil:** 1 semestr/2022-2023 o'quv yili
**Kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit
**Soatlar/kreditlar miqdori:** ECTS – Kreditlar 4

| **Fan/modul kodi** SS | **O'quv yili** 2022-2023 | **Semestr** 1 | **ECTS – Kreditlar** 4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta'lim tili** O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 4 |

| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
|---|---|---|---|
| Moliyaviy hisobot auditi | 60 | 60 | 120 |
| Shundan:<br>ma'ruza:<br>amaliy mashg'ulot: | <br>30<br>30 | 60 | 120 |

**Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:**
**Auditoriya vaqti:** Dars jadvaliga asosan
**Magistrantlar:**
**Fan uchun mas'ul kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi
**Instruktor to'g'risida ma'lumot**
**Instruktor:** Jumayeva Gulruh
**Kafedra joylashgan joyi:** QarMII, 8-o'quv binosi, 104-xona
**Telefon:** 97 2945510
**E-mail:** gulruh.jumayeva.68@mail.ru
**Ish vaqti:** Belgilangan vaqt oralig'ida

**I.Fanning tavsifi**

Moliyaviy hisobot auditi fani 70410102-Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi 1-bosqichida 1-semestrida o'qitiladi. Ushbu dasturda raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik-moliya-tijorat faoliyatini samarali boshqarish, hisob-kitob tizimining to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishini tashkil etishda "Moliyaviy hisobot auditi"ning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari aks etgan. Iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirishda yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish uchun auditorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Uning asosiy maqsadi - moliyaviy hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash, xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish



Scanned with CamScanner

bo'yicha zarur maslahatlar berish kabilardan iborat. "Moliyaviy hisobot auditi" fanini o'rganish, uning turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan yanada kengroq boyitishni vazifa qilib qo'yadi.

## II. Fanning maqsadi

"Moliyaviy hisobot auditi" fanining asosiy maqsadi- moliyaviy hisobotlaridagi ma'lumotlarining haqqoniyligini ta'minlash, xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish bo'yicha maslahatlar berish va boshqalardan iborat. "Moliyaviy hisobot auditi" fanini o'rganish uning turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan boyitishni vazifa qilib qo'yadi. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Fanning vazifasi-talabalarga O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy integratsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy nazorat tizimi va uni takomillashtirish muammolari, aktivlar, majburiyatlar va mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bilan bog'liq muomalalar auditi hamda xususiy kapital shakllanishi bilan bog'liq operatsiyalar auditini o'tkazish, shuningdek, auditorlik tanlovlari, ishlab chiqarish bosqichi auditini tashkil qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga sotish va tushum bosqichi auditi masalalrini o'rgatishdan iborat.

## III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:
- moliyaviy hisobot auditi tizimi va uning modellari;
- moliyaviy hisobot auditii o'tkazish usullari;
- xo'jalik subyektlarida moliyaviy hisobot to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- xalqaro auditorlik standartlari asosida moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni tashkil qilishni;
- xalqaro audit standartlari asosida buxgalteriya hisobi registrlari mosligi nazoratini qo'llay olishni;
- xalqaro auditorlik standartlari asosida moliyaviy hisobot auditi natijalarini rasmiylashtirishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- moliyaviy hisobot auditini o'tkazishlari va uning natijalarini tahlil qilish;
- xalqaro audit standartlari asosida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditi tashkil etishi;
- xalqaro audit standartlari asosida moliyaviy hisobot auditi natijalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***



## IV. Ta'lim berish shakllari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliyotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## V. Fanning tarkibiy tushilishi

| DARS | Mavzular | Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar rejasi | Soat: ma'ruza | Soat: Amaliy |
|---|---|---|---|---|
| | **1-Modul. Moliyaviy hisobot auditini tashkil etishning xususiyatlari** | | | |
| 1. | **1-mavzu. Moliyaviy hisobotlar hajmi va uni tekshirishdan maqsadi** | 1. Moliyaviy hisobotlarni tekshirish vazifalari va maqsadi.<br>2. Moliyaviy hisobotni baholash mezonlari.<br>3.Moliyaviy hisobot.<br>4.Jamlangan moliyaviy hisobot. | 2 | 2 |
| 2. | **2-mavzu. Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish usullari** | 1. Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish usullarining turkumlanishi.<br>2. Audit o'tkazish usullari va ularning asosiy tushunchalari. | 2 | 2 |
| 3. | **3-mavzu. Xo'jalik subyektlari hisobotining auditi** | 1. Moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha asosiy me'yoriy xujjatlarga izox.<br>2. Xo'jalik subyektlari moliyaviy hisobotining auditi. | 2 | 2 |
| | | 3. Xo'jalik subyektlarining qayta tuzilishi va yopilish jarayonidagi hisoboti auditi.<br>4. Kichik tadbirkorlik subyektlari hisobotining auditi.<br>5. Xo'jalik subyektlari hisobotining qonunchilikni buzib tuzilgan holatlarda auditor harakati. | 2 | 2 |
| 4. | **4-mavzu. Buxgalteriya balansi moddalari va** | 1. Moliyaviy hisobot va balansning o'zaro bog'liqligi.<br>2. Balansning alohida moddalari bo'yicha baholanishi. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **buxgalteriya hisobi regestrlari mosligi nazorati** | 3. Buxgalteriya balansining turlari va ularni tekshirish xususiyatlari.<br>4. Balansga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning audit standartlarida aks ettirish. | 2 | 2 |
| | | 5. Buxgalteriya balansiga ilovalar va ularni chop etish zarurligi va ahamiyati.<br>6. Debitorlik va kreditorlik karzlari to'g'risidagi ma'lumot auditi. | 2 | 2 |
| **2-Modul. Moliyaviy hisobot turlari bo'yicha audit o'tkazish ketma ketligi** | | | | |
| 5. | **5-mavzu. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditi** | 1. Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushumi buxgalteriya registrlari, birlamchi xujjatlar hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslash.<br>2. Moliyaviy hisobotda aks etgan boshqa daromadlar auditi. | 2 | 2 |
| | | 3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks etgan xarajat turlari bo'yicha auditi.<br>4. Byudjetga to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar auditi. | 2 | 2 |
| 6. | **6-mavzu. Pul oqimlarm to'g'risidagi hisobot auditi** | 1. Korxona pul oqimlarini faoliyat turlari bo'yicha nazorati.<br>2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda ikki xil yondoshuv va uni audit nuktai nazaridan urganish. | 2 | 2 |
| | | 3. Naqd pul mablag'larini bankdan tashqari aylanishini oldini olishda pul oqimlari to'g'risida hisobot auditining ahamiyati. | 2 | 2 |
| 7. | **7-mavzu. O'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot auditi** | 1. Korxona o'z kapital holati va uni shakllantirish manbalari bo'yicha xarajati auditi.<br>2. Ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya va zaxira sarmoyasi auditi.<br>3. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi auditi. | 2 | 2 |
| | | 4.Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashni haqqoniyligini tekshirish.5.Tekinga olingan mol-mulkni hisobda aks ettirilishni tekshirish.<br>6.To'langan dividendlar moddasi bo'yicha audit o'tkazish. | 2 | 2 |
| 8. | **8-mavzu. Moliyaviy ko'rsatkichlarga** | 1. Tayyorgarlik ishlari.<br>2. Auditorlik xulosasining tarkibi va mazmuni.<br>3. Auditorlik xulosasining turlari va ularning mazmuni. | 2 | 2 |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **auditorlik xulosalar** | 4. Hisobot tuzilgan sanadan so'ng sodir bo'lgan voqealar va ular aniqlanganda auditor harakati.<br>5. Maxsus vazifalar yuzasidan auditorlik xulosalari. | 2 | 2 |
| | | **semestr bo'yicha JAMI** | **30** | **30** |

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini olib borishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogic yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, bliss so'rov, klaster.

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogic faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabalarda natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

## VI. Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi)

O'quv rejaga fan bo'yicha kurs ishi ko'zda tutilmagan.

## VII.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Magistrantlar mustaqil ishini tashkil etishda fani xususiyatlarini, shuningdek magistrantning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va audit standartlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;

seminar va amaliy mashgulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;

ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;

fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;

ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarini tayyorlash;

o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:



Scanned with CamScanner

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish talab qilinadi..

Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, magistrantlar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (10%)

Har semestrda haftada o'tilgan ma'ruzalar asosida jami 15 tadan amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Har bir amaliyot mag'ulot bo'yicha topshiriqlar keyingi dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish (10%).

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi ("Test" (kompyuterda)), vaqti (jadval asosida), baholash mezonlari (har bir magistrantga alohida variant bo'yicha 30 ta savoldan iborat test beriladi va har bir to'g'ri javobga 1 ball belgilanadi))

**Talabalar bilimini baholash tizimi**

A (93-100)
A-(86-92)
B+(82-85)
B (77-81)
B-(71-76)
C+(67-70)
C (60-66)
C-(56-59)
D (55-50)
E (0-49)




## ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

### Asosiy adabiyotlar

**O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.– T.:O'zbekiston, 2017- 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. // Xalq so'zi gazetasi.2016 yil 14 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // Xalq so'zi gazetasi.2000 yil 27 may.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari**

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.
5. "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 02.02.2017 yildagi PQ-2753-son, kuchga kirish sanasi 03.02.2017.
6. "Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob- kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 02.02.2017 yildagi PQ-2751-son, kuchga kirish sanasi 13.02.2017.
7. "Mahsulot (ish hizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1999 yil 5 fevral. Lex.uz. portali.
8. "Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug'i.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

9. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T., 2017. 104 b.
10. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent. O'zbekiston. 2017.

**Asosiy maxsus adabiyotlar**

11. SH.I.Ilxomov Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 443 b.
12. SH. Fayziyev, O.Masharipov, M.Xojiyev. Prakticheskiy audit. Uchebnoye posobiye. -T.: "Iqtisod- Moliya", 2015.-208 s.
13. B.Xamdamov, SH.Ilxomov, N.Karimov, Masharipov O., M.Xojiyev. Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 272 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

14. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 620 b.
15. Kuziyev I., Tuychiyev A., Xojiyev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. "Iqtisod-Moliya", 2018 g. – 252 str.




Scanned with CamScanner

## Axborot manbalari

16. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
17. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
18. www.internetindicators.com – Iqtisodiy indikatorlar internet veb-sayti.
19. www.ziyonet.uz –"Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'i.





Scanned with CamScanner